

O'RTA OSIYODA NOTIQLIK SAN'ATI

Termiz davlat pedagogika instituti
tillar fakultetining o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi birinchi 1-kurs talabasi

Shodiyeva Shabbona

Ilmiy rahbar: **Hakimova Farida**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'tgan asrlarda O'rta Osiyodagi notiqlik san'atining ildizlari, ularning rivojlanishi hamda bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Qadimdan boshlab notiqlik san'ati diniy siyosiy va ma'naviy hayotda muhim o'rin olib kelmoqda. Bu san'atni "Avesto" davridan boshlanib, Islom davrlarida vazlar o'qish orqali, hozirda esa adabiyot va davlat boshqaruvida notiqlik san'atining beqiyos o'rni haqida tahlil qilinadi. Shuningdek, O'rta Osiyodagi mashhur mashhur notiqalar Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy notiqlik mahorati so'z san'atiga tutgan o'rni hamda xalqning ma'naviyatiga ta'sir qilgan. O'rta Osiyo xalqlari madaniy merosida notiqlik san'ati milliy g'urur va ma'naviy boylik ekanligini e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: notiqlik sanati, so'z mahorati, notiqalar nutq odobi, vaz voiz, manaviyat, majlis va suhbatlar, so'z, tasirchan nutq, ritorika, fikr ifodasi, "Avesto" va so'z falsafasi ilmiy, diniy, ommabop, nutq, nutq orqali ta'sir etish.

Notiqlik san'ati - bu so'zi orqali tinglovchi ta'sir ko'rsatish, fikrni aniq, ravon va ishonchli tarzda ifodalash mahorati. Insoniyat tarixida so'z san'ati siyosat din va adabiyot sohalarida muhim o'rin egallab kelgani malum. Bu boradagi eng qadimgi manbalardan biri bu - "Avesto" bo'lib, unda : "All good thoughts, all good deeds. I do willingly. Yani, " Men barcha yaxshi fikrlarni , barcha yaxshi so'zlarni va barcha yaxshi amallarni ixtiyoriy ravishda qilaman. " Ushbu barcha notiqlik san'ati nuqtai nazaridan juda muhim chunki u fikr, so'z va amal uyg'unligini, nutq va harakatlarning axloqiy jihatidan masuliyatli bo'lishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, " Avesto"ning ("Yana 35-bobi ") da "Yaxshi fikrlar, yaxshi amallarni qilaman yomon amallarni esa qilmayman."-deya ta'kidlanadi . Bu esa so'z sehri qanchalik muhimligini yaqqol namunasidir. Mashhur sharqshunos E.Bertes ham o'z tadqiqotlarida "Avesto" dagi nutq falsafasini qadimgi sharqdagi birinchi ritorik tizim sifatida e'tirof etiladi.

Islom madaniyatining kirib kelishi notiqlik san'atini yangi bosqichlarga olib chiqdi. Masjid, madrasa, jamoat yig'inlarida foizlik xutba va maruzachilik sanati rivoj topdi. Har juma kunlari masjidlarda Qur'oni Karimdan sura va oyatlar o'qildi. Bu kabi vazlarning o'qilishi islomiy madaniyat va ma'rifat urug'ini ekilishiga turtki bo'ldi. Xalq orasida notiqlik san'atiga qiziqish oshdi. Voizlarni tinglash maqsadida butun xalq yig'iladigan bo'lishdi. IX -X asrlarga kelib ko'plab olim va shoirlar o'zlarinig asarlari orqali notiqlik san'ati rivojiga hissa qo'shishdi. Abu Nasr Farobiy o'zining "Ritorika " (arabcha)(Al - Kitobat) asarida nutqini ta'sirchan qilish yo'llarini falsafiy jihatidan tahlil qiladi.

Unga ko'ra, notiq fikrlarini faqat so'z bilan emas, balki, aql his - tuyg'u va axloqiy yetuklik orqali ifoda etish kerak, Abu Rayhon Beruniy esa "Qadimgi xalqlardan qolganlardan yodgorlik " asarida turli xalqlarda nutq san'atining o'ziga xos shakillarini tahlil qiladi va O'rta Osiyoda "so'zga sadoqat " tushunchasi qadimdan mavjudligini yozadi. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'ot-at turk " asarida turkiy xalqlar so'zlashuvini tahlil qiladi va uning naqadar jozibador va kuchli sehrgar ega ekanligini o'z asarida ochib berdi. So'zning ta'sirini dalillashga harakat qiladi va buni uddalaydi. Bu asarda nutqning aniqligi, tilga bo'lgan e'tibor uni toza bo'lishi aralash tillardan saqlanish orqali nutqni ta'sirli bo'lishini ko'rsatadi. Buyuk mutafakkir, shoir va yozuvchi Alisher Navoiy davriga kelib notiqlik san'ati eng yuqori cho'qqino egallaydi. U o'zining asarlari orqali notiqlik san'atini butun xalqning ongiga sanatini butun xalqning ongiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Navoiy davrining mashhur notiqalaridan bo'lgan va o'zining ko'plab asarlarida notiqlik san'atini keng targ'ib qiladi. Navoiy so'z san'ati haqida har bitta asarida to'xtaladi hamda asar qahramonlari orqali notiqlikning qay darajada muhim o'rin tutishini ko'rsatib beradi. "Xamsa " ming birinchi dostoni "Hayrat ul-abror ni ham " so'z "boblari orqali ifodalaydi

Asarning boshlanishi soʻz va oʻrni bilan boshlash orqali yozuvchi qanday maqsad qoʻygan degan savol tugʻilishi mumkin. Bu orqali yozuvchi asarga kirishdan oldin har bir kitobxon sizning sehrini uning qanchalik ahamiyati ekanligini bilishni xohlaydi. Chunki, asar davomida Navoiy soʻzlarini aniq va ravon qilib oʻz oʻrnida qoʻllaydi. "Xamsa " da (Farhod va Shirin ,Layli va Majnun,Sabbai Sayyor) kabi asar qahramonlarining nutqlari orqali notqlik sanʼatining manaviy taʼsiri yoritib beradi. Navoiy oʻzinig asarlari orqali tinglovchilarni ilmiy axloqiy va maʼnaviy jihatidan tarbiyalashga xizmat qiladi. Nutq sanati, soʻz sanati jihatidan tarbiyalashga xizmat qiladi. Nutq sanati, soʻz sanʼati jihatidan Navoiyning roli haqida Botirov Muhammadjon oʻz maqolasida keng targʻib qiladi. Maqolada Botirov Navoiyni "Soʻzlar mamlakatining sultoni " deb ataydi. Bugungi kunda insonlar oʻrtasida axborot manbalari orqali doimiy ravishda xabardor boʻlishadi. Buni xalqqa aniq va ravon yetkazish uchun nutq sanati yani notqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ishbilarmonlikda taqdimot va muzokaralarda nutqning kuchi taʼsir qilishi kerak . Shuningdek, taʼlim va maʼrifatda oʻqituvchi yoki marifatchi tinglovchilarga bilimni tushunarli va qiziqarli yetkazishi uchun notqlik sanʼati muhim ahamiyat kasb etadi. Notqlik shaxsiy sohada muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

Notqlik oʻtgan asrlardan boshlab shakllanib kelayotgan soʻz sanati hisoblanadi.Bu haqida Asqarovna Mashhura " Notqlik sanati sirlari haqidagi " nomli maqolasida notiq boʻlish uchun zarur qobiliyatlar ,uning taʼsiri , nutqning tasir doirasi tayyorgarlik ohangdorligi , mantiqi uygʻunligi boʻlishi kerakligini taʼkidlaydi.

"Soʻz ogʻizdan chiqadigan daryo , u quduqday chuqur ham oqimday tez ham boʻlishi mumkin ; uni ehtiyot bilan oqiz : zero ki , inson koʻrki - soʻzdurur.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- * The Yali Book id Quvtations - soʻzlar iqtiboslar va hikmatli fikrlar toʻplami 2015.
- * the art of Rhetoric (Aristotel) 2018.
- * Shukurov . Sh . Ifodali oʻqish metodikasi Toshkent Fan ,2018.
- * Umarov . N . Nutq texnikasi va pedagogik mahorat - Samarqand , 2021.